IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

SUN’IY INTELLEKT VA FUQORORIK BO‘YICHA HUQUQIY JAVOBGARLIK TURLARI

Ergashyev Quvonchbek Anvarovich
Termiz davlat universiteti
Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21165616

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida fuqarolik huquqiy javobgarligining nazariy asoslari, amaliy muammolari va huquqiy tartibga solish istiqbollari tahlil etiladi. Bugungi kunda sun'iy intellekt jadal rivojlanib, hayotimizda kirib keldi. Albatta sun'iy intellektning foydalari bo‘lgani kabi zararli jihatlari ham ko‘zga tashlanmoqda. Sun'iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zararlar uchun javobgarlik masalasi bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida huquqshunos olimlar va qonun chiqaruvchilar o'rtasida keng muhokama qilinmoqda. Maqolada javobgarlikning asosiy turlari, xorijiy tajriba va O'zbekiston huquqiy tizimidagi mavjud muammolar ko'rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: Huquq, intellekt, qonun, loyiha, O‘zbekiston, respublika, tajriba, texnalogiya, tadbirkor, korxona.

Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 6-oktabr kuni sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ularni iqtisodiyot hamda ijtimoiy sohalarga keng joriy etish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berdi. 2024-yil 14-oktabrda esa "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi.

2025-yil 22-oktabrda Prezident PF-189-son Farmonini imzoladi. Prezident Mirziyoyev sun'iy intellekt haqida o‘z fikrlarini bildirib shunday deganlar: "Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga — sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'ymoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda sun'iy intellekt (SI) tizimlari inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib bordi. Tibbiyot, transport, moliya, ta'lim va huquq sohasida SI tizimlari tobora keng qo'llanilmoqda. Biroq bu texnologiyalarning rivojlanishi o'zi bilan birga tubdan yangi huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Eng muhim muammo — SI tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun kim javobgar ekanligi masalasidir. Sun'iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning eng keng tarqalgan modeli — ishlab chiqaruvchi javobgarligi modelidir. Bu model quyidagi asosga tayanadi: Sun'iy intellekt tizimini yaratgan kompaniya yoki dasturchi mahsulotining xavfsizligini ta'minlashi shart. Yevropa Ittifoqi 2021-yilda "Sun'iy intellekt haqida qonun" (AI Act) loyihasini taqdim etdi. Bu hujjat SI tizimlarini xavf darajasiga qarab to'rt toifaga ajratadi:

2026-Maqsul bo'lmagan xavf erkin qo'llaniladi. Cheklangan xavf shaffoflik talablari qo'yiladi. Yuqori xavf qat'iy nazorat ostidaMaqbul bo'lmagan xavf — taqiqlanadi.

Bizda esa hozircha sun'iy intellekt javobgarligini tartibga soluvchi qonunlar mavjud emas. Mavjudlari esa O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi — 985–1003-moddalar (zarar yetkazganlik uchun javobgarlik) "Axborotlashtirish to'g'risida" gi Qonun — raqamli tizimlar javobgarligi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonun — mahsulot sifati javobgarligi shular jumlasidandir. 2026-yil 21-yanvarda "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" qonun (O'RQ-1115) kuchga kirdi. Qonun loyihasi sun'iy intellekt tushunchasiga ta'rif berish, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda maxsus vakolatli organning vazifalari, axborot resurslarini yaratishda sun'iy intellektdan foydalanishning umumiy qoidalarini belgilashga qaratilgan. Kadrlar tayyorlash

sohasida sun'iy intellekt bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan TOP-300 universitetlar bilan qo'shma dasturlar, AI, fintech, kiberxavfsizlik kabi yo'nalishlarga grantlar 35% ga oshirildi. "Sun'iy intellekt alyansi" tuzildi. Vazirlik va idoralar o'z ma'lumotlarini yagona elektron formatga o'tkazib, "O'zbek tili korpusi" yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda Sun'iy intellekt va fuqarolik huquqiy javobgarligi masalasi — bu faqat huquqiy emas, balki falsafiy, texnik va ijtimoiy muammodir. An'anaviy fuqarolik huquqi kategoriyalari SI tizimlarining murakkab tabiatini to'liq qamrab ola olmaydi. Shu sababli yangi huquqiy yondashuvlar — qat'iy javobgarlik, ishlab chiqaruvchi javobgarligi va elektron shaxs instituti — diqqat bilan o'rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. — T.: Adolat, 2022. Yevropa Ittifoqining "Sun'iy intellekt haqida qonun" loyihasi (AI Act, 2021).
2. Sun Tzu. Urush san'ati. — T.: Sharq, 2010.
3. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. — Pearson, 2020.
4. Doshi-Velez F. Accountability of AI Under the Law. — Harvard Law Review, 2017.
5. Floridi L. The Ethics of Artificial Intelligence. — Oxford University Press, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida". O'RQ-1115-son. — 2026-yil 21-yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". PF-189-son. — 2025-yil 22-oktabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". PQ-358-son. — 2024-yil 14-oktabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida". PF-76-son. — 2023-yil 24-may.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4996-son. — 2021-yil 17-fevral.
11. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 46-2-modda. — T.: Adolat, 2026.